

**BARQARORLIK REYTINGI MEZONLARIDAN SAMARALI
FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

*PhD Nurmatov Sherzod Rustamovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

Annotatsiya. Maqolada barqarorlik reytingining nazariy asoslari va uning mezonlaridan samarali foydalanish masalalari o'rganilgan. Barqarorlik reytingi mezonlaridan samarali foydalanish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan va sababchi omillar tahlil qilingan hamda xulosa-takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: soliq, barqarorlik reytingi, soliq imtiyozlari, soliq yengilliklari, rag'batlantirish.

**ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЗОВАНИЯ
КРИТЕРИЙ РЕЙТИНГА УСТОЙЧИВОСТИ**

*PhD Нурматов Шерзод Рустамович
Ташкентский государственный экономический университет*

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические основы рейтинга устойчивости и вопросы эффективного использования его критериев. Проведены исследования по эффективному использованию критериев рейтинга устойчивости, проанализированы причинные факторы, сформулированы выводы и предложения.

Ключевые слова: налог, рейтинг устойчивости, налоговые льготы, налоговые льготы, стимулы.

**IMPROVING THE EFFECTIVE USE OF SUSTAINABILITY
RATING CRITERIA**

*PhD Nurmatov Sherzod Rustamovich
Tashkent State University of Economics*

Abstract. The article examines the theoretical foundations of sustainability rating and the issues of effective use of its criteria. Research on the effective use of sustainability rating criteria was conducted, causal factors were analyzed, and conclusions and suggestions were formulated.

Key words: tax, sustainability rating, tax credits, tax breaks, incentives.

Kirish. Mamlakatimizda sanoat korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Bundan asosiy

maqsad tizimni raqobatbardosh va eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradigan yangi texnologiyalar bilan ta'minlashdir.

Buning natijasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga ichki va tashqi bozorda talab ortib boradi. Bunda esa tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan yengilliklar hamda soliq imtiyozlarining iqtisodiy ahamiyati kattadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 23 yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tadbirkorlar faoliyatini baholab boruvchi, ularga o'ziga xos yengillik va ustunliklar beruvchi barqarorlik reytingi joriy etildi¹.

Tadbirkorlarning takliflari asosida biznes uchun sharoitlarni tobora yaxshilab boryapmiz. Yaqinda qabul qilingan qarorlar bilan 16 ta litsenziya va 34 turdagi hisobotni bekor qilindi. Tadbirkorlar sinfi jamiyatda yetakchi kuchga aylanmoqda, yoshlar ularga qarab intilmoqda. Endi ushbu reyting orqali tadbirkorlar o'rtasida qonunlarga itoat qilish, intizomli va harakatchan bo'lishni rag'batlantirish zarur. Buni joriy qilish va samaradorligini ta'minlashda Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha jamoat kengashining o'rni katta bo'lishi kerak².

Barqarorlik reytingi o'zi nima? soliq imtiyozining bir ko'rinishimi? yoki soliqlardan yengilliklar berishmi? yoki soliq to'lovchilar uchun qo'shimcha rag'batlantirish vositasimi ?

Ushbu savollarga oydinlik kiritish maqsadida iqtisodchi olimlarning fikrlarini o'rganib chiqamiz.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 23 yanvardagi qaroriga asosan yuqori barqarorlik reytingidagi tadbirkorlik subyektlari uchun quyidagi rag'batlantirish choralari joriy etildi:

a) «AAA» toifadagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatida soliq tekshiruvlari o'tkazilmaydi (jinoiy ishlar doirasida o'tkaziladigan tekshiruvlar bundan mustasno), shuningdek, ushbu toifadagi tadbirkorlik subyektlariga qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'rnini qoplash (qaytarish) bir kun muddatda tekshiruvlarsiz amalga oshiriladi;

b) 4 va 5-toifadagi tumanlarda faoliyat yuritayotgan «AA» va undan yuqori toifadagi tadbirkorlik subyektlariga bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotilgan davlat aktivlari va qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan er uchastkalari bo'yicha dastlabki to'lov summasi 35 foizdan kam bo'lgan hollarda qolgan summaga Markaziy bankning asosiy stavkasi miqdorida yillik foizlar hisoblanmaydi hamda bo'lib-bo'lib to'lash muddati miqdoridan qat'i nazar, 7 yil (teng ulushlarda) etib belgilanadi;

v) «A» va undan yuqori toifadagi tadbirkorlik subyektlariga:

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 23 yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-39-son qarori.

² Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2024 yil 15 yanvar kuni tadbirkorlarning barqarorlik reytingini joriy qilish bo'yicha taqdimotidagi ma'ruzasi.

solliqlar bo'yicha (qo'shilgan qiymat solig'i bundan mustasno) mavjud ortiqcha to'lov summasini qaytarish uchun kun muddatda amalga oshiriladi;

tovarlarni import qilishda va tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summalarini o'zaro hisobga olish tartibi tatbiq etiladi.

Barqarorlik reytingiga tadbirkorlik subyektlariga tatbiq etiladigan imtiyozlar, yengilliklar va rag'batlantirish vositalari yuqoridagilardan iborat. Albatta bu yengilliklar baholash natijalariga ko'ra taqdim etiladi.

Mazkur imtiyozlar soliq imtiyozlari sifatida qabul qilish mumkinmi? Buning uchun soliq imtiyozlari to'g'risidagi iqtisodchi olimlarni o'rganib chiqish zarur bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 75-moddasida soliq imtiyozlari "Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan soliq to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan afzalliklar, shu jumladan soliqni to'lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati soliq imtiyozlari deb e'tirof etiladi³".

Soliq kodeksining bu moddasiga O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda O'RQ-812-sonli "Soliq va byudjet siyosatining 2023-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga asosan o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. "Ayrim solliqlar bo'yicha soliq imtiyozlari, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i solinadigan mahsulotlar ishlab chiqarilganda va (yoki) realizatsiya qilinganda aksiz solig'i er qo'ridan foydalanganlik uchun soliqdan va foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig'idan va foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig'idan tashqari, ushbu moddaning oltinchi qismi qoidalarini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan faqat belgilangan soliq stavkasini kamaytirish, lekin ko'pi bilan 50 foizga kamaytirish tarzida va ko'pi bilan uch yil muddatga berilishi mumkin⁴".

Agar ushbu Kodeksda aniq belgilanmagan bo'lsa, soliq to'lovchilar soliq imtiyozlaridan ularning amal qilish muddati davomida foydalanish huquqiga ega. Ushbu huquq tegishli huquqiy asoslar kuchga kirgan paytdan boshlab boshlanadi. Soliq to'lovchilar soliq imtiyozlaridan foydalanishni rad etish yoki bir yoki bir nechta soliq davrlari uchun ularni qo'llashni vaqtincha to'xtatib turish imkoniyatini ham saqlab qoladilar. Eslatib o'tamiz, ushbu qoidadan qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovarlarni (xizmatlarni) sotish chiqarib tashlandi.

³ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 75-moddasi. 2024.

⁴ O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 30 dekabrda "Soliq va byudjet siyosatining 2023 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan o'zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-812-sonli Qonuni.

Soliq imtiyozlari soliqdan ozod qilingan mablag'lar muayyan maqsadlarda foydalanish sharti bilan berilishi mumkin. Ushbu mablag'lar o'z maqsadi bo'yicha ishlatilmagan taqdirda, ushbu maqsadda foydalanilgan qismi belgilangan tartibda budjetga qaytarilishi kerak. Soliq imtiyozlarining amal qilish muddati davomida foydalanilmay qolgan mablag'lar rag'batlantirishning amal qilish muddati tugaganidan keyin bir yilgacha bo'lgan muddatda ularni taqdim etishda ko'rsatilgan maqsadlarga yo'naltirilishi mumkin. Belgilangan muddatda foydalanilmagan mablag'lar budjetga qaytarilishi kerak. Bunda belgilangan muddatda foydalanilmagan mablag'lar budjetga o'tkazilishi lozim.

U.X.Normurzaev ilmiy ishlarida "Soliq imtiyozlari - soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan afzalliklar, shu jumladan, soliqni to'lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati hamda soliq imtiyozlarini hisobga olish soliq organlari tomonidan axborot tizimlaridan foydalangan va soliq imtiyozlarining har bir turiga maxsus identifikatsiya kodini bergan holda amalga oshirish kerakligini maqsadga muvofiq"⁵ - deb hisoblaydi.

O.O.Yushkova: "Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq imtiyozlari davlat soliq siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarga erishishga qaratilgan"⁶-deb izohlaydi.

V.G.Panskovning fikricha, "muayyan faoliyat turlariga nisbatan qo'llaniladigan imtiyozlar subsidiyalar to'lashga teng bo'lib, tashkilotlarning faolligini oshirishga va ularning samaradorligini oshirishga olib kelishi mumkin"⁷.

F.Raxmatullaeva: "imtiyozlar - bu iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va ijtimoiy vazifalarni hal etish maqsadida soliq to'lovchining soliq majburiyatlarini qonun tomonidan belgilangan shaklda butunlay yoki qisman kamaytirishning yo'llari, huquqlari va majburiyatlari majmuidir"⁸.

"Soliq imtiyozlari - bu iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari yoki bo'linmalarini ularning mahsuldorlik darajasini oshirishga rag'batlantirish uchun hukumat tomonidan belgilanadigan eng muhim paket. U iqtisodiy o'sish va rivojlanishni rag'batlantirish uchun mo'ljallangan, bu esa mamlakatning yalpi ichki mahsulotini oshirishi kerak. Soliq imtiyozlarini iqtisodiyotning ayrim imtiyozli tarmoqlariga investitsiyalarni rag'batlantirish uchun mo'ljallangan rag'batlantirish sifatida tavsiflash mumkin, bazan ular iqtisodiyotning jadal rivojlanishi uchun ichki etkazib berishni to'ldirish uchun

⁵ Normurzaev U.X. Soliq imtiyozlarining samaradorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. 08.00. 07 – Moliya, pul muomalasi va kredit. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. 2022.

⁶ Yushkova O.O.Vliyanie nalogovix lgot na effektivnost predprinimatelskoy deyatelnosti Rossiyskoy Federatsii. Nauka XXI veka №4 2017.

⁷ Panskov V.G. Nalogi i nalogovaya sistema Rossiyskoy Federatsii. [Tekst] / V.G. Panskov. – M.: Finansi i statistika, 2013. – 478.

⁸ Raxmatullaeva F. "Soliq imtiyozlarining mohiyati va iqtisodiyotni rag'batlantirishdagi roli" Moliya ilmiy jurnali №2/2016 108 bet

valyuta oqimini jalb qilishga qaratilgan”⁹.

U.O.Basseya ko‘ra, “solliq imtiyozlari – bu solliq to‘lovchilarga ma‘lum faoliyat turlari bilan shug‘ullanishni rag‘batlantirish sifatida davlat tomonidan taqdim etiladigan daromad yoki solliq majburiyatidan maxsus istisnolar, imtiyozlar yoki chegirmalar”¹⁰.

“Hukumat ularni muayyan yo‘l bilan tutishga undash uchun har xil turdagi rag‘batlarni taklif qiladi. Solliq imtiyozlariga misollar: kapital qo‘shimchalari, investitsiya imtiyozlari, investitsiya solig‘i krediti, solliqsiz dividendlar, zararni qoplash, solliq ta‘tillari, past solliq stavkasi, ayrim kreditlar bo‘yicha foizlardan ozod qilish”¹¹.

Solliq imtiyozlari qishloq xo‘jaligi, tog‘-kon sanoati, neft-gaz va boshqalar bo‘yicha beriladi va ular, ayniqsa, solliq islohotlari va solliq qonunchiligiga o‘zgartishlar kiritish jarayonida muntazam qayta ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, G.Ihe fikriga ko‘ra, “solliq imtiyozlari iqtisodiy tartibga solish va strategiya bo‘lib, unda hukumat ba‘zi kompaniyalar yoki jismoniy shaxslardan rivojlanishni rag‘batlantiradigan ma‘lum iqtisodiy sabablarga ko‘ra kamroq yoki umuman solliq to‘lamaslikni so‘raydi”¹². Neft va gaz sohasida solliq imtiyozlari zarur, chunki sektor hozirda mamlakat iqtisodiyotining asosiy tayanchi hisoblanadi¹³.

Maris Liepa qarashlarida “solliq imtiyozlari quyidagi belgilar bilan tasniflanadi:

1. Solliq imtiyozi - bu asosiy (normativ) solliq tuzilmasidan chetga chiqish.
2. Solliq imtiyozlari alohida solliq to‘lovchilarga beriladigan afzalliklardir.
3. Solliq imtiyozi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirish vositasidir”¹⁴.

Z.Qurbonov va F.Akramov “solliq imtiyozlarining mohiyatini ochish maqsadida uni nazariy jihatdan uch guruhga bo‘lib o‘rganishgan:

- solliqdan to‘liq yoki qisman ozod etish;
- solliqdan chegirmalar;
- solliq kreditlari (solliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar)”¹⁵.

O.S.Belomo‘tseva yozishicha, “solliq imtiyozlari solliq siyosatining keng tarqalgan

⁹ Ibraheem, Abdullahi Aderemi, Olaitan, Wasuu Abiodun, Oyetola, Daud Olawale, Omoniyi, Oyelowo Oyetade, Amolegbe, Sikiru Adesola. Impact of Tax Incentive on Industrial Growth and Development. International Journal of Academic Management Science Research (IJAMSR) ISSN: 2643-900X Vol. 4, Issue 7, July – 2020, Pages: 171-179 www.ijeais.org/ijamsr 171

¹⁰ Basseya, U.O. (2013). Companies taxation in Nigeria. Lagos: The CIBN Press Ltd. Business Day (Newspaper) 26th August

¹¹ Arogundade, J. A. (2005). Nigerian income tax and its international dimension. Ibadan: Spectrum Books Ltd

¹² Ihe, G. (2012). Industrial Development Income Tax Relief Act. Abuja: Federal Government Press

¹³ Anyanwu, S. (2015). Companies Income Tax Act. Abuja: Federal Government Press.

¹⁴ Maris Liepa. Opredelenie bazovoy (normativnoy) struktury naloga i nalogovyh lgot. https://bstudy.net/941870/ekonomika/opredelenie_bazovoy_normativnoy_struktury_naloga_nalogovyh_lgot. 25.02.2023.

¹⁵ Qurbonov Z., Akramov F. “Solliq imtiyozlarining moliyaviy hisobini takomillashtirish masalalari” Biznes-ekspert ilmiy jurnali №9 2015

vositasidir. Umuman olganda, soliq imtiyozlari davlat yoki mintaqaviy hokimiyat tomonidan berilgan imtiyoz ostida soliq to'lovchilarning ma'lum bir toifasi uchun soliq yukini kamaytirishdir"¹⁶.

J.J.O'rmonov tomonidan: "soliq imtiyozi – Soliq kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq, soliq to'lovchilarga soliq majburiyatini qisqartirish, soliq stavkasi va soliq bazasini kamaytirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lamaslik yoxud ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati"¹⁷.

F.I.Isayev fikricha esa, "soliq imtiyozlari – yuridik shaxslarning ayrim toifalarini soliqlar to'lashdan qisman yoki to'liq ozod qilish, yoki soliqlarni kamroq miqdorda to'lash uchun berilgan imkoniyatlardir"¹⁸.

V.A.Taraschenko "soliq imtiyozlarini Ukrainaning soliq qonunchiligiga asosan soliq immuniteti, soliq amnistiyasi va soliq ta'tillariga ajratishni taklif etgan va ularga ta'rif bergan"¹⁹.

Soliq immuniteti – xalqaro va (yoki) milliy huquq normalariga muvofiq alohida imtiyozli mavqega yoki tegishli maqomga ega bo'lgan ayrim toifadagi shaxslarni soliq to'lash majburiyatidan ozod qilish. Bunday imtiyoz soliq imtiyozlari emas, agar biz diplomatik xarakterdagi immunitet haqida gapiradigan bo'lsak, xalqaro shartnomalar va konventsiyalar shartlariga muvofiq imtiyozlar berilishi soliq talabidir. Ammo milliy manfaatlarga asoslangan va me'yoriy talablardan chetga chiqishni tashkil etuvchi immunitet imtiyoz sifatida belgilanishi kerak. Xususan, bir qator mamlakatlarda muzeylar, teatrlar, xayriya fondlari, fanlar akademiyalari va boshqalar soliq immunitetiga ega;

Soliq amnistiyasi - muayyan huquqbuzarliklarga nisbatan oliy hokimiyat organining aktiga muvofiq amalga oshiriladigan, jazolovchi soliq sanksiyalarini va (yoki) umidsiz soliq qarzlarni bir martalik bekor qilishni (hisobdan chiqarishni) nazarda tutuvchi imtiyozdir;

Soliq ta'tillari – bu qonun bilan cheklangan muddat belgilanishini nazarda tutuvchi imtiyoz bo'lib, uning davomida soliq to'lovchilarning muayyan toifasi muayyan soliqni to'lash majburiyatidan ozod qilinadi.

Soliq imtiyozlari to'g'risidagi aksariyat fikrlarda imtiyozlar Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan afzalliklar, shu jumladan soliqni to'lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati ekanligi keltirilgan.

¹⁶ Belomytseva O. S. Otsenka effektivnosti nalogovyx lgot dlya chastnykh investorov na rynke sennykh bumag: metodologiya i instrumentariy. Avtoreferat dissertatsii po spetsialnosti 08.00.10 – Finansy, deneznoe obrasheniye i kredit. 2022.

¹⁷ Urmonov J.J. Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish masalalari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. 2018

¹⁸ Isaev F.I. "Soliq tahlili metodikasini takomillashtirish". i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. 2019 yil. 116 bet.

¹⁹ Taraschenko V.A. Teoretiko-metodicheskie podxody k klassifikatsii nalogovyx lgot v ukraine. Voprosy sovremennoy ekonomiki.2013 iyul.DOI:10.24194/21318.

Xo'sh barqarorlik reytingida yuqori toifadagi tadbirkorlik subyektlariga boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan **afzalliklar**, shu jumladan **soliqni to'lamaslik** yoki ularni **kamroq miqdorda to'lash** imkoniyati taqdim etilmoqdamini ?

Barqarorlik reytingidagi yuqori toifadagi tadbirkorlik subyektlarida boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan afzalliklar ega bo'lishmoqda, biroq ularda soliqni to'lamaslik yoki kamroq to'lash imkoniyati mavjud emas.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, barqarorlik reytingida yuqori toifadagi tadbirkorlik subyektlarida soliq imtiyozlarining to'liq xususiyatlari mavjud bo'lmasligi, ularga faqatgina tegishli mezonlarga asosan aniqlangan reytinglaridan kelib chiqib afzalliklar berilishini inobatga olib, ular soliq imtiyozlariga ega bo'lishmaydi balki boshqacha tarzda ustunliklarga ega bo'lishadi degan xulosaga kelish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada soliq imtiyozlari, yengilliklari, barqarorlik reytingi bo'yicha tadqiqot olib borilgan bo'lib, induksiya, deduksiya, ilmiy abstraksiya va taqqoslama tahlillar, diagrammalar asosida ilmiy natijalar olingan.

Tahlil va natijalar. Tadbirkorlik faoliyati uchun Reyting joriy qilinishi o'ziga xos rag'bat bo'ldi. Unga ko'ra, tadbirkorlar faoliyat davri, rentabellik darajasi, to'lov intizomi, aholi bandligidagi o'rni va ish haqi kabi 23 ta mezon asosida 4 ta toifaga ajratiladi. Bu soliq, adliya va sud organlari ma'lumotlari asosida shakllanadi. Har bir tadbirkor o'z o'rni va bahosini real vaqtda bilib borishi mumkin bo'ldi.

reyting doirasida tadbirkorlik subyektlari quyidagi toifalarga ajratiladi:

«AAA», «AA» va «A» toifalar — yuqori barqarorlik reytingi;

«VVV», «VV» va «V» toifalar — o'rta barqarorlik reytingi;

«SSS», «SS» va «S» toifalar — qoniqarli barqarorlik reytingi;

«D» toifa — quyi barqarorlik reytingi;

Yuqori barqarorlik reytingidagi tadbirkorlik subyektlari uchun quyidagi rag'batlantirish choralari joriy etildi:

- «AAA» toifadagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatida soliq tekshiruvlari o'tkazilmaydi (jinoiy ishlar doirasida o'tkaziladigan tekshiruvlar bundan mustasno), shuningdek, ushbu toifadagi tadbirkorlik subyektlariga qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'rnini qoplash (qaytarish) bir kun muddatda tekshiruvlarsiz amalga oshiriladi;

- 4 va 5-toifadagi tumanlarda faoliyat yuritayotgan «AA» va undan yuqori toifadagi tadbirkorlik subyektlariga bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotilgan davlat aktivlari va qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan er uchastkalari bo'yicha dastlabki to'lov summasi 35 foizdan kam bo'lgan hollarda qolgan summaga Markaziy bankning asosiy stavkasi miqdorida yillik foizlar hisoblanmaydi hamda bo'lib-bo'lib to'lash muddati miqdoridan qat'i nazar, 7 yil (teng ulushlarda) etib belgilandi;

- «A» va undan yuqori toifadagi tadbirkorlik subyektlariga:

solliqlar bo'yicha (qo'shilgan qiymat solig'i bundan mustasno) mavjud ortiqcha to'lov summasini qaytarish uchun kun muddatda amalga oshiriladi;

tovarlarni import qilishda va tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summalarini o'zaro hisobga olish tartibi tatbiq etildi.

Reytingni aniqlash bo'yicha bajarilmagan mezonlar tadbirkorlik subyektlari tomonidan bajarilgan zahotiy oq tegishli ballar qo'shib boriladi yoki aksincha majburiyatlarni bajarish muddati o'tgan zahoti ballar chegiriladi.

E'tiborlisi, reytingda tadbirkorlar uchun rag'batlantiruvchi mezonlar ham mavjud. Ya'ni tadbirkorlik subyektlari tomonidan "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va ijtimoiy reestrda, shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslar bandligini ta'minlaganda reytingda qo'shimcha ballar beriladi. Shuningdek, o'tgan hisobot davriga nisbatan xodimlar sonining ortishi, qo'shilgan qiymat solig'i va aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha bir oylik hisoblangan soliq summasining faoliyat turlariga muvofiq o'rtacha nisbati ham inobatga olinadi.

O'z navbatida, ballarni kamaytiruvchi bir qator omillar ham mavjud. Jumladan, oxirgi 12 oy davomida ma'lumotlar bazasidan hisobda turgan joyining o'zgartirilishi, ta'sischisi yoki rahbarining ishonchsizligi, taqdim etilgan soliq hisobotlariga soliq to'lovchining o'zi tomonidan ixtiyoriy tuzatishlar kiritilishi, qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisining maxsus guvohnomasi holati, mahsulot va xizmatlarning identifikatsiya kodlaridan noto'g'ri foydalanish, soliq qarzining mol-mulk hisobidan undirilishiga qaratilganligi hamda tadbirkorlik subyektlarining kreditorlik qarzdorligi oxirgi 12 oy davomida sud orqali undiruvga qaratilgan bo'lsa, o'z-o'zidan reytingda ballarning yo'qotilishiga sabab bo'ladi.

Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 30 yanvardagi Qarori bilan "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlandi²⁰.

Reytingni baholash metodikasi uchta toifa mezonlarga bo'linadi – umumiy, pasaytiruvchi va rag'batlantiruvchi.

1-jadval

Umumiy mezonlar²¹

No	Mezon	Ballar
1	Kompaniya ro'yxatdan o'tgan sanadan boshlab ishlash muddati (bekor turib qolish vaqti hisobga olinmaydi)	Har bir yil uchun 2 ball (5 yil va undan ko'proq – 10 ball)

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 30 yanvardagi "Tadbirkorlik sub'ektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi PQ-55-son qarori.

²¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 30 yanvardagi PQ-55-son qarori asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

2	EBITDA bo'yicha rentabellik darajasi (foizlar, soliqlar, eskirish va amortizatsiya chegirmasidan oldingi foyda), hisobot xalqaro standartlar bo'yicha hisobga olinadi	25–50 % – plyus 2; 50–70 % – plyus 5; 70 % dan ko'proq – plyus 10
3	Ko'chmas mulk ob'ektlari yoki er uchastkalarining mavjudligi, foydalaniladigan er uchastkalari (shu jumladan uzoq muddatli ijaradagi qishloq xo'jaligi yerlari), shuningdek mulk huquqi yoki ijara huquqidagi ko'chmas mulk	ijarada – plyus 7; mulkida – plyus 10. agar mavjud bo'lmasa, shuningdek tadbirkor ko'rsatilgan manzilda harakat qilmasa – minus 5
4	Bitta xodimning mehnatga haq to'lash jamg'armasidagi ulushning soha bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichiga nisbati	kamida 25 % – plyus 2; 25–50 % – plyus 4; 50–75 % – plyus 6; 75–99 % – plyus 8; 100 % va ko'proq – plyus 10, agar ish haqi mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan kam bo'lsa, u holda – minus 5 ball
5	Soliq hisobotlarini o'z vaqtida taqdim qilish	O'z vaqtida – plyus 10; agar kechikish bilan yoki umuman taqdim qilinmasa – plyus 0
6	Hisoblangan soliqlarni o'z vaqtida to'lash (har bir oy kesimida)	O'z vaqtida – plyus 10; agar kechikish bilan yoki umuman to'lanmasa – 0
7	To'lov yoki inkasso topshiriqnomasi asosida hisoblangan soliqlarni to'lash	plyus 10 (agar inkasso orqali bo'lsa, unda reyting 5 ballaga kamayadi)
8	Belgilangan muddatlarda (summaning EHF aylanmasiga nisbati) tovarlarni yetkazib berish, xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish uchun elektron hisobvara-q-fakturani (EHF) rasmiylashtirish	kamida 25 % – plyus 1; 25–50 % – plyus 2; 50–75 % – plyus 5; 75–99 % – plyus 7; 100 % – plyus 10
9	O'sha yili EHF bo'yicha sotib olingan tovarlar yoki xom ashyoni (shu jumladan import qilinganlarni) realizatsiya qilish (eksport qilish); tovarlar va xom ashyoni sotib olish va sotish nisbati	50–70 % – plyus 5; 70 % dan ko'proq – plyus 10; agar sotib olingan tovar va xom ashyolarning 70 %i qoldiqda saqlansa, u holda minus 5
10	Soliq organlarining avvaldan tekshirish tahlili paytida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish	Xatolarni ixtiyoriy tarzda bartaraf etish – plyus 7; kamchiliklar yo'q – plyus 10; tuzatilmagan yoki kamchiliklar haqida izoh yo'q – minus 5

2-jadval

Pasaytiruvchi mezonlar²²

№	Mezon	Ballar
1	Oxirgi 12 oy ichida kompaniyaning ish joyini (pochta manzilini) uch yoki undan ko'p marta o'zgartirish	minus 5
2	So'nggi 12 oy ichida kompaniya rahbarining uch yoki undan ko'p marta almashishi	minus 5
3	So'nggi 3 yil ichida kompaniya rahbari yoki ta'rischisining sudlanganligi yoki bankrotligi	minus 5
4	Ilgari taqdim qilingan soliq hisobotiga tuzatish kiritish	Tuzatish uchun minus 1 ball (maksimum 5)
5	QQS to'lovchisi guvohnomasining to'xtatilishi yoki bekor qilinishi	minus 10
6	Mol-mulk hisobiga soliq qarzdorligini undirish (jarima to'lov qilingandan keyin yechiladi)	minus 5
7	Soliqlar bilan bog'liq qonunbuzilishlar uchun javobgarlikka tortish	ma'muriy – minus 2; jinoiy – minus 5
8	MXIKdan noto'g'ri foydalanish (oyiga kamida 2 marta)	minus 5
9	Kreditorlik qarzlarini undirish bo'yicha sud jarayoni (12 oy ichida ikki yoki undan ortiq marta)	minus 10

3-jadval

Rag'batlantiruvchi mezonlar²³

№	Mezon	Ballar
1	Xodimlar orasida ehtiyojmand shaxslar ulushi (Ijtimoiy himoya yagona reestrda, «temir», «ayollar», «yoshlar» daftarlarida), shuningdek nogironligi bo'lgan shaxslar	10–20 % – plyus 5; 20 % dan ko'proq – plyus 10
2	MHTEKMdan yuqori ish haqi oladigan xodimlar sonining yillik o'sishi (yangi kompaniyalar uchun o'sish sur'ati o'tgan oyga nisbatan ikkinchi oydan hisoblanadi)	1–10 % – plyus 2; 10–20 % – plyus 4; 20–30 % – plyus 6; 30–40 % – plyus 8; 40–50% – plyus 10;

²² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 30 yanvardagi PQ-55-son qarori asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

²³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 30 yanvardagi PQ-55-son qarori asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

		50%dan ortiq – plyus 15
3	Agar to‘langan QQS summasi sohaning o‘rtacha ko‘rsatkichidan 1,1 baravar yuqori bo‘lsa yoki eksport daromadlari umumiy daromadning kamida 50 foizini tashkil etsa (QQS to‘lovchilariga-oyiga BHMning kamida 10 baravari miqdorida)	plyus 10
4	agar aylanmadan to‘langan soliq summasi soha bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan 1,1 baravar yuqori bo‘lsa yoki eksport daromadlari umumiy daromadning kamida 50 foizini tashkil etsa (QQS to‘lovchilariga-oyiga BHMning kamida 10 baravari miqdorida, aylanmadan soliq to‘lovchilar uchun oyiga BHMning kamida 1 baravari miqdorida)	plyus 10

Reyting avtomatik tarzda (onlayn) Soliq qo‘mitasining elektron platformasida shakllantiriladi. Tadbirkor to‘plashi mumkin bo‘lgan maksimal ballar soni – 100. Baholash tadbirkorlik subyektining qonunchilik talablariga qanday rioya qilayotgani haqidagi ma‘lumotlarga asoslanadi. Ushbu ma‘lumot idoralararo ma‘lumotlar almashinuvi orqali platformaga uzatiladi.

Masalan:

Agar kompaniyaning faoliyati 5 yildan oshsa, tadbirkorlik subyekti 10 ball oladi. Agar soliq to‘lovchi to‘lov topshiriqnomasi orqali soliqlarni mustaqil ravishda to‘lasa, u ham 10 ball oladi. Biroq, agar soliqlar soliq organlari tomonidan inkasso topshiriqnomasi orqali undirilgan bo‘lsa, tadbirkorlik subyekti minus 5 ball oladi.

Har bir kalendar oyining natijalariga ko‘ra 1-kun holatiga avtomatlashtirilgan dasturiy mahsulot orqali barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun halollik reytingi shakllantiriladi va uning natijalari Savdo-sanoat palatasi veb-saytida e‘lon qilinadi va har bir baholash predmeti kontekstida soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga to‘plangan ballar batafsil taqsimlangan holda ma‘lumotlar yuboriladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt reyting bahosiga rozi bo‘lmasa nima qilish kerak?

Reytingni baholash natijalaridan norozi bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari Soliq qo‘mitasiga shikoyat bilan murojaat qilish huquqiga ega. Soliq organi shikoyatni qonun hujjatlariga muvofiq ko‘rib chiqishi va quyidagilardan birini tanlashga haqli:

- agar shikoyat asosli bo‘lsa, reyting baholash natijalarini ko‘rib chiqish;
- shikoyatni qanoatlantirmagan holda qoldirish va rad etish sabablarini tushuntirish.

Xulosa va takliflar. Baholashda ko‘p narsa buxgalterning professionalligiga bog‘liq. Soliq majburiyatlarini o‘z vaqtida va ixtiyoriy ravishda bajarish reytingda yuqori bahoni olishga yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan jadvallarda 3 ta mezonlardagi har bir holat bo‘yicha

qanchadan ball berilishi, qaysi hollarda qo‘shimcha ballar qo‘shilishi va qaysi hollarda ballar pasaytirilishi ko‘rish mumkin. Bu mezonlardan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘ri foydalangan holda ko‘plab soliq imtiyozlari va yengilliklaridan foydalanishlari mumkin bo‘ladi.

Mezonlarga e‘tibor beriladigan bo‘lsa, tadbirkorlar uchun judayam murakkab bo‘lgan holatlar deyarli mavjud emas. Ularning hammasi ularning shundoq ham kundalik amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalardan iborat. Bu orqali tadbirkorlik subyektlari o‘zlarini amalga oshirishi lozim bo‘lgan ishlarini xam bajaradilar, xam mezonlardan unumli va to‘g‘ri foydalangan holda qo‘shimcha imtiyozlarga ega bo‘ladilar.

Xulosa qilib aytganda, Barqarorlik reytingi to‘g‘ri va halol faoliyat ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlab, ularga rag‘batlantirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 23 yanvardagi “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-39-son qarori.
2. Prezident Shavkat Mirziyoevning 2024 yil 15 yanvar kuni tadbirkorlarning barqarorlik reytingini joriy qilish bo‘yicha taqdimotidagi ma‘ruzasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 75-moddasi. 2024.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 30 dekabrda “Soliq va byudjet siyosatining 2023 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan o‘zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-812-sonli Qonuni.
5. Normurzaev U.X. Soliq imtiyozlarining samaradorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. 08.00. 07 – Moliya, pul muomalasi va kredit. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. 2022.
6. Yushkova O.O. Vliyaniye nalogovix lgot na effektivnost predprinimatelskoy deyatelnosti Rossiyskoy Federatsii. Nauka XXI veka №4 2017.
7. Panskov V.G. Nalogi i nalogovaya sistema Rossiyskoy Federatsii. [Tekst] / V.G. Panskov. – M.: Finansi i statistika, 2013. – 478.
8. Raxmatullaeva F. “Soliq imtiyozlarining mohiyati va iqtisodiyotni rag‘batlantirishdagi roli” Moliya ilmiy jurnali №2/2016 108 bet.
9. Ibraheem, Abdullahi Aderemi, Olaitan, Wasiru Abiodun, Oyetola, Daud Olawale, Omoniyi, Oyelowo Oyetade, Amolegbe, Sikiru Adesola. Impact of Tax Incentive on Industrial Growth and Development. International Journal of Academic Management Science Research (IJAMSR) ISSN: 2643-900X Vol. 4, Issue 7, July – 2020, Pages: 171-179 www.ijeais.org/ijamsr 171

10. Basse, U.O. (2013). Companies taxation in Nigeria. Lagos: The CIBN Press Ltd. Business Day (Newspaper) 26th August
11. Arogundade, J. A. (2005). Nigerian income tax and its international dimension. Ibadan: Spectrum Books Ltd
12. Ihe, G. (2012). Industrial Development Income Tax Relief Act. Abuja: Federal Government Press
13. Anyanwu, S. (2015). Companies Income Tax Act. Abuja: Federal Government Press.
14. Maris Liepa. Opredelenie bazovoy (normativnoy) struktury naloga i nalogovyx lgot. https://bstudy.net/941870/ekonomika/opredelenie_bazovoy_normativnoy_struktury_naloga_nalogovyh_lgot. 25.02.2023.
15. Qurbonov Z., Akramov F. “Solliq imtiyozlarining moliyaviy hisobini takomillashtirish masalalari” Biznes-ekspert ilmiy jurnali №9 2015
16. Belomitseva O. S. Otsenka effektivnosti nalogovix lgot dlya chastnix investorov na rinke sennix bumag: metodologiya i instrumentariy. Avtoreferat dissertatsii po spetsialnosti 08.00.10 – Finansi, deneznoe obrashenie i kredit. 2022.
17. Urmonov J.J. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini solliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish masalalari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. 2018
18. Isaev F.I. “Solliq tahlili metodikasini takomillashtirish”. i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. 2019 yil. 116 bet.
19. Taraschenko V.A. Teoretiko-metodicheskie podxodi k klassifikatsii nalogovix lgot v ukraine. Voprosi sovremennoy ekonomiki.2013 iyul.DOI:10.24194/21318.
20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 30 yanvardagi “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi PQ-55-son qarori.